



**OILAVIY NIZOLAR SABAB BOLALARDA KECHADIGAN
PSIXOLOGIK O'ZGARISHLAR**

*Andijon davlat pedagogika instituti
“Ijtimoiy va amaliy fanlar” fakulteti
“Musiq ta’lim” yo’nalishi 101-guruh talabasi
Shavkatova Kamola Dilshod qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy nizolar haqida Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida olib borilayotgan islohotlar, qonun-qarorlar va chora tadbirlar haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, oilaviy nizolarning kelib chiqishi va bolalarda psixologik o’zgarishlari yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: oilaviy nizolar, qonun-qarorlar, ota-ona, bola, oila instituti, huquqiy asoslar, oilaviy qadriyatlar, stress, depressiya, xulq-atvor, farzandlik burchi, Oliy Majlis.

Аннотация: В этой статье представлена информация о реформах, законодательных решениях и мерах, проводимых под руководством президента Шавката Мирзиёева по семейным спорам. Также освещаются истоки семейных конфликтов и психологические изменения у детей.

Ключевые слова: семейные конфликты, законодательство, родитель, ребенок, институт семьи, правовые основы, семейные ценности, стресс, депрессия, поведение, долг ребенка, Верховная Рада.

Annotation: This article provides information about family disputes about reforms, laws and measures under the leadership of President Shavkat Mirziyoyev. Also, the origin of family conflicts and psychological changes in children are highlighted.

Keywords: family disputes, law-decisions, parent, child, Family Institute, legal framework, family values, stress, depression, behavior, filial duty, House of Commons.



Har bir bola oila bag'rida muhabbat va xotirjamlikni his qilishni istaydi. Biroq, oilaviy nizolar bolalarning ruhiy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, ularning kelajakdagi hayotiga salbiy iz qoldirishi mumkin. Tadqiqotlarga ko'ra, oilaviy nizolar davom etayotgan muhitda ulg'aygan bolalarning 70% dan ortig'i katta bo'lgach ham stress va xavotir muammolariga duch keladi. O'zbekiston Respublikasida ushbu muammoni hal qilish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida olib borilayotgan islohotlar oilaviy nizolarni o'rganish va bartaraf etish masalasini davlat siyosati darajasiga olib chiqdi. Quyida ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan muhim ishlarga batafsil to'xtalib o'tamiz.

Oila instituti huquqiy asoslarini takomillashtirish va oilaviy qadriyatlarni saqlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Oila institutini mustahkamlash, uning huquqiy va institutsional asoslarini takomillashtirish, ajrimlarning oldini olish va oilaviy qadriyatlarni saqlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 16-moddasiga, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi qaror qiladi. Ular quyidagilar: Oila munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha respublika ishchi guruhi tarkibi 1-ilovasiga, va ko'maklashuvchi ishchi guruhlar 2-ilovasiga muvofiq;

Oila institutining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish va oila munosabatlarini mustahkamlash bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq;

Oila munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha ko'maklashuvchi ishchi guruhlarining vazifalar taqsimoti 4-



ilovaga muvofiq tasdiqlansin. ¹Ushbu qonun oilaviy nizolarni bartaraf etish, ularga psixologik va tibbiy yordam berish mexanizmlarini yaratdi.

Davlatning oilani qo'llab-quvvatlash dasturlari mavjud. Bu dasturlar oilalarga moddiy va psixologik yordam ko'rsatadi. Notinch oilalar bilan ham ishlash bo'yicha davlat tashkilotlari faoliyat yuritadi, ular oilalarga yordam berish va bolalarni himoya qilish bilan shug'ullanadi. Ota onalar va farzandlar o'rtasidagi nizolar, kelishmovchiliklar uchun zamin bo'lib quyidagilar xizmat qiladi:

- Dunyoqarashlar orasidagi mavjud farqning hisobga olinmasligi.
- Yoshlarning bo'sh vaqtini mustaqil tashkil etishi, do'stlar tanlashdagi mustaqilligi, hissiyot sohasidagi mustaqilligi, modaga, bugungi kun talabiga mos kiyinishi, kasb tanlashdagi mustaqilligi, umr yoldosh tanlashda mustaqillik uchun ota onalari bilan ba'zan kurash olib borishning xush kelmasligi.
- Ota onalar ichkilikka ruju qo'yishi yoki or-nomusni yigishtirib qo'yib, buzuvchilik qilishi.
- Ba'zi bolalarni mehnat qilishga o'rgatilmaganligi va buning oqibatida yengil-yelpi hayot kechirishga o'rganib qolishi.
- Ayrim yoshlarning farzandlik burchini unutib qo'yishi va hokazo.
- Ota-onalarning psixologik-pedagogik bilim saviyalari yetarli darajada emasligi natijasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar.

Ota-onalar va bolalar munosabatiga oid yuqoridagi kabi kamchiliklar natijasida oiladan halovat yo'qoladi, o'rta sovuqchilik tushadi. Farzandlik burchini bajarmaslik u yoqda tursin, hatto, ichib kelib, ota-onasiga qo'l kotaradigan farzandlar, ota-onasini sharmanda qilayotgan suyuqoyoq faxshparastlar borligiga nima deysiz? Ba'zi ota-onalar bolalarda 3, 6, 13-14 yoshlarda muqarrar ravishda bo'lib o'tadigan krizislarni bilmaydilar. Bu yosh bosqichlarida bola ruhiyatida yangi psixologik qo'shilmalar yuzaga keladi. Bu esa ularning kattalar, jumladan ota-onalar bilan bo'lgan munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Buni sezmagan ba'zi ota-onalar "bolam

¹ [KQ-29-V-сон 27.12.2024. Oila instituti huquqiy asoslarini takomillashtirish va oilaviy qadriyatlarni saqlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida](#)



nihoatda qaysar, quloqsiz bo‘lib qoldi”, deb o‘ylaydilar va shikoyat qilishga tushadilar. Bunga qarshi o‘zlaricha chora-tadbirlar belgilashlari natijasida ota-ona va bola bir-birlarini tushunolmay qoladilar. Bolaning ota-ona dan bezish hollari kuzatiladi.²

Oilaviy muhit har bir bolaning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Oilaviy nizolar, mojarolar va kelishmovchiliklar esa bolalarning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bugungi kunda oilaviy mojarolar nafaqat kattalar, balki bolalar hayotiga ham sezilarli darajada ta’sir o‘tkazmoqda. Bunday sharoitda ulg‘aygan bolalar ruhiy bosim ostida yashaydi, bu esa ularning kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy hayotiga jiddiy ta’sir qilishi mumkin. Ayniqsa, oiladagi barqarorlikning buzilishi bolalarda stress, xavotir, o‘ziga ishonchsizlik, depressiya kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham oilaviy nizolarning bolalar psixologiyasiga ta’sirini o‘rganish va ularga yechim topish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Stress va xavotirning ortishi. Oilaviy janjallar davomiy bo‘lsa, bolalarda stress darajasi oshib, xavotir va qo‘rquv paydo bo‘ladi. Ular o‘zlarini himoyasiz his qilishi, kelajakdan qo‘rqishi yoki uyqu buzilishlari kabi muammolarga duch keladi.

Xulq-atvor o‘zgarishlari. Mojarolar natijasida ba’zi bolalar tajovuzkor yoki itoatsiz bo‘lib qoladi. Ba’zilar esa aksincha, kamgap, tortinchoq yoki passiv bo‘lib qoladi. O‘smir yoshdagi bolalar esa noto‘g‘ri yo‘llarga kirib qolish ehtimoliga ega bo‘lishadi.

O‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi. Oilaviy nizolar bola o‘zini keraksiz yoki aybdor his qilishiga sabab bo‘ladi. Bu esa uning kelajakdagi shaxsiy rivojlanishiga va ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta’sir qiladi.

Akademik natijalarning pasayishi. Oilaviy mojarolar bolaning darslarga bo‘lgan qiziqishini kamaytiradi, diqqatni jamlash qiyinlashadi va o‘qishdagi natijalari yomonlashadi. Ba’zi hollarda bolalar maktabga bormaslikni istab qolishadi.

² G‘.B. Shoumarov, I.O. Haydarov, N.A. Sog‘inov “Oila psixologiyasi” Toshkent-2015.



Ijtimoiy munosabatlarda muammolar. Bunday sharoitda ulg'aygan bolalar atrof-muhitga nisbatan ishonchsiz, shubhalanuvchan bo'lishadi. Ular do'st orttirishda yoki jamiyat bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Depressiya va ruhiy muammolar. Uzoq davom etgan oilaviy mojarolar natijasida bolalar depressiyaga moyil bo'lishadi. Ular doimiy tushkunlik, hayotga qiziqish yo'qolishi, yolg'izlik hissi kabi muammolarga duch kelishadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir oilada oilaviy nizolar bo'lib turadi. Bu borada qabul qilingan qonunlar, amalga oshirilgan iqtisodiy va ijtimoiy dasturlar, Prezident tashabbuslari va xalqaro hamkorlik samarasi o'z natijalarini bermoqda. Bularning barchasi davlat rahbari tomonidan oila tinchligi masalasiga qaratilgan e'tiborning natijasi bo'lib, oilaning mustaxkamligini ta'minlashda muhim bosqich bo'lib xizmat qilmoqda. Bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar davom ettirilmoqda. Oilaviy nizolar, bolalar uchun psixologik jihatdan katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday nizolar bolalarda bir qator psixologik o'zgarishlarga olib keladi. Umuman olganda, oilaviy nizolar bolalar uchun ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi va bunday vaziyatlarda bolalarga psixologik yordam ko'rsatish va ular bilan suhbatlashish muhim ahamiyatga ega. Oilaning barqarorligi va salbiy ta'sirlarning kamaytirilishi uchun ota-onalar o'zaro muloqotda bo'lib, bolalarning ehtiyojlarini inobatga olishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. G'.B. Shoumarov, I.O. Haydarov, N.A. Sog'inov "Oila psixologiyasi" Toshkent-2015.
2. Vasila Karimova "Oila psixologiyasi" (darslik) Toshkent-2007.
3. [KQ-29-V-coH 27.12.2024. Oila instituti huquqiy asoslarini takomillashtirish va oilaviy qadriyatlarni saqlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida](#)
4. <https://lex.uz/mact/-104720>